

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILY IMKONIYATLARI	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
Mansurov Obid Zaynidinovich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI	296
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
Norova Nozima Nabiyeвна	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	325
Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
Umarova Durdona Abdumannabovna	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
Aminova Naima Umar qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
Davlatov Ulug'bek Baxodirovich	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	370
Avliyaqulov Xudoyberdi	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
Xannarov Komiljon Karimovich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
Bekmurodov Navruz Ergashevich	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
Sattorov Shohruh	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
Загидуллина Карина Рафаиловна	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
Viktoriya Kan	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
Nizomov Maxmud Minovarovich	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
Alimov Bobirjon	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
Azimov Bobir Fattohevich	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
Kunnazarova Orazxan	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
Ibodullayev Dilshod Ibragimovich	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
Alimova Oydin Baxtiyorovna	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT EFFICIENCY	486
Qurbanov Feruz Baxramovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEKANIZMLARI	491
Xakimov Akbar Anvarovich	
XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI	496
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Atabayeva Mexribon Atabayevna	
ENHANCING LIQUIDITY MANAGEMENT EFFICIENCY IN JOINT-STOCK COMPANIES USING THE GEOMETRIC BROWNIAN MOTION (GBM) MODEL.....	503
Kurbonov Xayrilla	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	508
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAHLIL QILISH (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	514
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	520
Зарекеев Ажинияз Абатович	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	527
Некова Фатима Борисовна	
DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI MODERNIZATSIYA QILISH VA LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	533
Kenjaev Ikrom Ergashboevich	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARNING XALQARO AHAMIYATI.....	536
Siddikov Anvarbek Mamasoliyevich	
“SANOAT 5.0 VA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI”	540
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
REINVENTING MANAGEMENT SYSTEMS TO DRIVE EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	545
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIVAVIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SHAKLLARI.....	549
Primova Dilafuz To'liqinovna	
TO'QIMACHILIK SANOATINING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	556
Shoyimov Adiz Sadredinovich	
ISHLAB CHIQARISH KLASTERLARINING HUDUDIY INNOVATSION RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	564
Turaeva Nargiza Rustamovna	
SAMARQAND VILOYATIDAGI HUDUDIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RESURS SALOHİYATINI INTEGRATSİYALASHGAN BAHOLASH METODLARI TAHLILI.....	570
Meliboyev Ibrohim	
VIDEO-ANALITIKA ASOSIDA YONG'IN XAVFSIZLIK TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	575
Shermuhhammad Mo'minov, Tojimirzayeva Xayrixon Abdushukur qizi	



DEVELOPMENT OF «GREEN» AGRICULTURAL SERVICES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	580
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDIY IXTISOSLASHUV DARAJASI	586
Tohirov Jahongir Muzaffar o'g'li	
ELEKTR TA'MINOTIDAGI UZILISHLAR TUFAYLI YUZAGA KELADIGAN BEVOSITA VA BILVOSITA IQTISODIY YO'QOTISHLARNI HISOBLASH METODOLOGIYASI.....	593
Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	598
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	



UDK 338.431.631.1

QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Matrasulov Baxodir Erbutayevich

Guliston davlat universiteti,
"Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrasida katta o'qituvchisi
ORCID 0009-0006-5517-3824,
e-mail bahodirm@mail.ru,
businessangel07@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklikning ahamiyati, ilmiy-tadqiqot faoliyati va raqamlashtirish jarayonlarining roli yoritilgan. Shuningdek, organik qishloq xo'jaligi va tomorqa xo'jaliklarida innovatsiyalarni joriy etish orqali daromadlarni oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish, organik dehqonchilik, agroxizmatlar, innovatsion salohiyat.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the development of innovative entrepreneurship in agriculture in Uzbekistan. The mechanisms of state support for innovative activities, the importance of public-private partnerships, the role of research and development activities and digitalization processes are highlighted. The possibilities of increasing income through the introduction of innovations in organic agriculture and household farms are also substantiated.

Keywords: innovation, agriculture, entrepreneurship, public-private partnerships, digitalization, organic farming, agroservices, innovative potential.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты развития инновационного предпринимательства в сельском хозяйстве Узбекистана. Рассматриваются механизмы государственной поддержки инновационной деятельности, важность государственно-частного партнерства, роль научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ и процессов цифровизации. Обосновываются также возможности повышения доходов за счет внедрения инноваций в органическом земледелии и домашних хозяйствах.

Ключевые слова: инновации, сельское хозяйство, предпринимательство, государственно-частное партнерство, цифровизация, органическое земледелие, агроуслуги, инновационный потенциал.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri innovatsion rivojlanish hisoblanadi. Ayniqsa, resurslar cheklangan sharoitda iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish, jumladan qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonining atigi 0,11 gektarni tashkil etishi mavjud resurslardan samarali foydalanishni talab etadi. Shu bois, agrar sektorda innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2021-yildagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoni bilan tasdiqlangan qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini rivojlantirish konsepsiyasi ushbu jarayonni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLIL

Qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida qaralib, ayniqsa agrar sektorda resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyalar nazariyasi asoschisi J. Schumpeter innovatsiyani "yangi kombinatsiyalarni joriy etish" sifatida ta'riflab, uni iqtisodiy rivojlanishning ichki harakatlantiruvchi kuchi deb hisoblaydi (Schumpeter, 1934). Keyinchalik R. Solow iqtisodiy o'sish modelida texnologik taraqqiyotning hal qiluvchi rolini asoslab berdi (Solow, 1956). P. Romer esa bilim va innovatsiyalarni endogen o'sish omili sifatida izohlab, ilmiy-tadqiqot faoliyatining iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada chuqurlashtirdi (Romer, 1990).

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan FAO va Jahon banki tadqiqotlarida agrar innovatsiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror rivojlanishga erishishda asosiy omil sifatida qayd etiladi (FAO, 2019; World Bank, 2020). Xususan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) ajratiladigan mablag'larning yuqori darajasi agrar sektor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (OECD, 2021).

Milliy darajada olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6159-son Farmonida agrar sohada bilim va innovatsiyalar tizimini rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2021).

Mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, innovatsion salohiyat ko'p komponentli tizim bo'lib, u inson kapitali, ilmiy infratuzilma, moliyaviy resurslar va institutsional muhit uyg'unligidan iborat (Freeman, 1987; Lundvall, 1992). Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi muhim o'rin tutadi. OECD tadqiqotlariga ko'ra, DXSh innovatsiyalarni tijoratlashtirish va investitsiyalarni jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi (OECD, 2015).

So'nggi yillarda "aqli qishloq xo'jaligi" (smart agriculture) va raqamlashtirish jarayonlari alohida e'tibor qozonmoqda. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi (Wolfert et al., 2017). O'zbekistonda ham agroplatformalar va elektron xizmatlar joriy etilishi agrar sektorda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Organik qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqotlar global bozorda ekologik toza mahsulotlarga talab ortib borayotganligini ko'rsatadi. Willer va Lernoud (2019) ma'lumotlariga ko'ra, global organik bozor hajmi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu yo'nalishda sertifikatlashtirish tizimi, bilim va marketing muammolari mavjudligi qayd etilgan (IFOAM, 2020).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon davlat siyosati, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamlashtirish darajasi va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi asosida samarali amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini kompleks o'rganish hamda uning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini innovatsion rivojlanish nazariyalari, xususan J. Shumpeterning innovatsiyalar konsepsiyasi, R. Solou va P. Romerning iqtisodiy o'sish modellariga asoslangan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu nazariy qarashlar asosida agrar sohada innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari va ularning natijadorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlik yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar – investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va institutsional muhit o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Shu bilan birga, iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida agrar sektor ko'rsatkichlarining dinamikasi, xususan ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va innovatsion faoliyat indikatorlari tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida innovatsion salohiyat iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbasi sifatida qaraladi va milliy boylkning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda innovatsion salohiyatni shakllantirish, qo'llash, uning mexanizmlarini joriy qilish va undan samarali foydalanish muammolari hozirgacha o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shunday ekan, innovatsion salohiyatdan samarasiz foydalanish raqobatbardosh, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi va mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning turli sohaslarida keng ko'lamli modernizatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun innovatsion salohiyatni ro'yobga chiqarish va rag'batlantirish mexanizmi sifatida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Ilmiy- texnik va innovatsion sohaslarida davlat-xususiy sherikchiligi-bu turli sohalarda va ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va biznes o'rtasida belgilangan yoki noma'lum muddatga qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan teng shartnomaviy munosabatlardir. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" Qonuniga ko'ra "davlat xususiy sheriklik (DXSh) – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi"ni anglatadi. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, quyidagilar davlat-xususiy sheriklik borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;
- mavjud ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga, tiklashga, undan foydalanishga, uni saqlashga ko'maklashish;
- ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va ulardan erkin foydalanishni kengaytirish;
- xususiy sektorning moliyaviy mablag'larini, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;

– davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish.

Innovatsiya sohasida davlat-xususiy sheriklik mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlar, davlat va xususiy biznesning o'zaro xatti-harakatlari majmui sifatida ta'riflanishi mumkin. Shu sababli, davlat-xususiy sheriklik doirasida davlatning vazifasi "o'yin qoidalari" va barcha ishtirokchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, tegishli kadrlar tayyorlash, ishlab chiqilgan texnologiyalar bo'yicha zarur ma'lumotlar bazasini, shuningdek ularning tijorat korxonalariga kirish imkoniyatini taqdim etishdan iborat bo'lsa, fanning vazifasi yangi g'oya va ishlanmalar taqdim etish; biznesning roli esa ilmiy g'oyalarni moliyalashtirish va moddiylashtirishda namoyon bo'ladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy-texnik innovatsiyalar sohasidagi DXShsiz zamonaviy milliy innovatsion tizimning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi mumkin emas.

Mamlakatimizda davlat ilmiy-tadqiqot institutlari va xususiy sektor vakillari o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, hukumat moliyaviy rag'batlantirish, xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va yetarli huquqiy shart-sharoitlarni yaratish orqali sheriklik aloqalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordamlashuvchi vositachi sifatida harakat qilishi lozim (1-rasm).

Tadqiqotchilar davlat korporatsiyalarining innovatsiyalar sohasida bir qator afzalliklarini ta'kidlaydilar, chunki ular:

a) yaratilgan maqsadlarga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, ya'ni ular darhol foyda olish maqsadini ko'zlamaydilar;


b) past foizlarda kredit olish imkoniyatlari; davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning yuqorilashishi. Ular nafaqat davlat, balki xususiy investitsiyalarni ham jalb qilishlari mumkin.

Shunday qilib, kuchli moliyaviy bazaning mavjudligi davlat korporatsiyalariga nafaqat ichki ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, balki xorijiy texnologiyalarni sotib olish va o'zlashtirish imkonini beradi.

Hozirgi bosqichda asosiy vazifa an'anaviy boshqaruvdan tashkiliy va ma'muriy, axborot-tahliliy, ijtimoiy xizmatlar va jamoatchilik aloqalarini boshqarishning murakkab birligiga o'tish, shuningdek davlat funksiyalarini amalga oshirish texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartirish hisoblanadi (2.3-rasm). Ishlab chiqarishda ilmiy-texnik faoliyat natijalarini ilgari surish borasida muayyan tarmoqni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bioindustriya, nanomeditsina, kompyuter texnologiyalari, yashil energiya, qayta tiklanadigan energiya,



yangi polimerlar va kompozit materiallar kabi ma'lum texnologik platformalarda yetakchi ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va muhandislik kompaniyalari o'rtasida sheriklik asosida hamkorlikni rag'batlantirish muhimdir (1-rasm).



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish mexanizmi

Muallif ishlanmasi.

2019-2023-yillar davomida davlat ilmiy dasturlari doirasida umumiy qiymati 124,3 milliard so'mlik 100 ta ilmiy loyiha moliyalashtirilgan. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot institutlarida davlat dasturlari doirasida 81 loyiha bo'yicha 42,3 milliard so'mlik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2019-2022-yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasida istiqbolli deb tan olingan 22 ta 15,1 milliard so'mlik startap-loyiha moliyalashtirilgan, bu ham bilimga intilish va chanqoqlikni rag'batlantirishga yordam beradi.

2023-yilda qishloq xo'jaligi sohasi olimlari tomonidan bog'dorchilik va uzumchilik sohasida oltita, don va dukkakli ekinlarda sakkizta yangi ishlanma taqdim qilingan. Qishloq xo'jaligi va tuproq unumdorligini oshirish sohasida bu ko'rsatkich 15 ta, paxtachilik, sabzavotchilik va g'allachilik sohalarida 20 ta ishlanmani tashkil etadi. Paxtaning 12 ta, donning 93 ta, sabzavot ekinlarining 12 ta navi yaratilgan, bo'lsa sholining 2 ta navi mahalliyashtirilgan.

Tomorqalarda olimlar tomonidan yaratilgan meva-sabzavot, poliz, dorivor va em-xashak o'simliklarining yangi serhosil navlarini yetishtirish, yiliga bir necha hosil olish imkonini beradi, tomorqalarda vertikal issiqxonalar va kichik gidroponika inshootlarini o'rnatish mumkin. Mavjud sharoitlardan kelib chiqib, uy hayvonlari va qushlarni, baliq va asalarilarni ko'paytirish mumkin.

O'n sotix yer maydonida bir nechta loyihalarni joylashtirish mumkin, masalan, qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha to'rtta loyiha-gilos, anor, limonni ikki qator ekish, bir sotix yer maydonida qulupnay yoki ko'kat yetishtirish uchun tokchali issiqxonalar tashkil qilish. Shuningdek, tomorqada ikki bosh sog'in sigir, 50 ta tovuq, ikkita asalari uyasini saqlash mumkin. Yuqoridagi tadbirlar hisobiga tomorqadan 90 million so'mgacha daromad olish imkoni tug'iladi.

O'zbekistonda organik dehqonchilik endi rivojlanib bormoqda. Hozirda mamlakatda organik dehqonlar kam va 2023-yil holatiga ko'ra umumiy organik yer maydoni atigi 5000 gektar atrofida. Shundan proteinli ekinlar – 1848 gektar, sabzavotlar – 40 gektar va h.k. Xuddi shu yilda organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar soni 26 tani tashkil etgan. Organik dehqonchilikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholi va fermerlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarining yo'qligi;
- organik mahsulotlar uchun yuqori narxlar;
- tuproqning pestitsidlar bilan dastlabki ifloslanishi va ularni bartaraf etish choralarining yo'qligi;
- sertifikatlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi idoralar samaradorligining pastligi.

Mamlakatda organik dehqonchilikni rivojlantirish uchun quyidagi chora tadbirlar taklif etiladi:

Iste'molchilar va fermerlar uchun organik qishloq xo'jaligi bo'yicha ochiq o'quv materiallarini tashkil qilish. U YouTube kanali yoki Telegram kanali shaklida bo'lishi, qishloq xo'jaligi vazirligi, FAOning mamlakatdagi vakili yoki mahalliy agrar universitet xodimlari tomonidan amalga oshirilishi lozim;

Aholini organik oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni rag'batlantirish. Talabning ortishi organik faoliyat uchun tabiiy katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, rag'batlantirish organik mahsulotlar qadoqlaridan xabardorlikni o'z ichiga olishi va do'konlarda organik mahsulotlar uchun alohida javonlar bo'lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, resurslar cheklangan sharoitda, jumladan sug'oriladigan yer maydonlarining qisqarib borishi fonida, ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorlikni oshirishda innovatsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda institutsional muhitning takomillashuvi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi va hosildorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishda samarali vosita ekanligi asoslandi. Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi esa qishloq xo'jaligida boshqaruv samaradorligini oshirib, vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tomorqa va dehqon xo'jaliklarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish va aholi daromadlarini bir necha barobar oshirish mumkin. Shu bilan birga, organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish eksport salohiyatini kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Biroq, mavjud muammolar, xususan innovatsiyalarni joriy etishdagi institutsional to'siqlar, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish darajasining pastligi, fermerlar bilim va malakasining yetarli emasligi mazkur jarayonni sekinlashtirmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratiladigan mablag'lar hajmini oshirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni kengaytirish;
- qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;
- fermer va dehqon xo'jaliklari uchun innovatsion bilim va ko'nikmalarni keng joriy etish;
- organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida innovatsion tadbirkorlikni izchil rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
2. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
3. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71–S102.
4. Freeman, C. (1987). *Technology Policy and Economic Performance*. Pinter Publishers.
5. Lundvall, B. Å. (1992). *National Systems of Innovation*. Anthem Press.
6. FAO. (2019). *Innovation in Family Farming*. Rome.
7. World Bank. (2020). *Agriculture and Food Global Practice Report*. Washington DC.
8. OECD. (2015). *Public-Private Partnerships for Innovation*. OECD Publishing.
9. OECD. (2021). *Agricultural Innovation Systems*. OECD Publishing.



10. Wolfert, S., Ge, L., Verdouw, C., & Bogaardt, M. J. (2017). Big Data in Smart Farming. *Agricultural Systems*, 153, 69–80.
11. Willer, H., & Lernoud, J. (2019). *The World of Organic Agriculture*. IFOAM.
12. IFOAM. (2020). *Organic Agriculture Worldwide Report*.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6159-сон 03.02.2021 "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi <https://share.google/1wvXPow2J8mFqrUUJ>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100